O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 52-60220300
2024yil “09 11

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil “__ ”_____

« Tarixiy geografiya»
FAN DASTURI

Bilim sohasi: **200000 – San’at va gumanitar fanlar**
Ta’lim sohasi: **220000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)**
Ta’lim yo‘nalishi: **60220400 –** Tarix (Kechki)

Fan/modul kodi TG1106	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	« Tarixiy geografiya»	52	98	150

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	Fanni o’qitishdan maqsad – Markaziy Osiyo xalqlari tarixi geografiyasi, madaniyatini va urbanizatsiya jarayonlari bilan tanishish hamda talabalarda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko’nikma va malakani shakllantirishdir. Talabalarda “Tarixiy geografiya” fanining shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o‘rganishdagi o‘rni, jahon hamda, mamlakatimiz hududida moddiy-madaniyatlarning o‘zaro bog‘liqligi va xususiyatlari munosabatlarining shakllanishi haqida bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.Shuningdek, mazkur fan arxeologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriatni buyurtmachi

	tashkilot hisoblanuvchi muziylarda tadqiqotlarni amalga oshirishda shu soha bo'yicha to'la qonli bilim ko'nikmasiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga o'z mazmuni bilan xizmat qiladi.
FM2	Fanning vazifasi – Talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalarini shuningdek, arxeologik manbalar turlari. Arxeologik manbalarning qadimgi davr tarixini yoritishdagi o'rni va ahamiyati. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi geografiyasi, madaniyatini va urbanizatsiya jarayonlaring asosiy bosqichlarini o'rgatishdan iborat.

Fan mazmuni.

Tarixiy geografiyaning vazifalari. Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari

Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari: tabiiy tarixiy geografiya; aholi tarixiy geografiyasi; xo'jalik (iqtisodiy) tarixiy geografiyasi; siyosiy tarixiy geografiya (shaharlar va o'lkalar joylashishi, tarixiy voqealar geografiyasi, harbiy harakatlar yo'nalishlari, janglarning karta-sxemalari, xalq qo'zg'olonlari geografiyasi). Tarixiy geografiyani o'rganishda yordamchi fanlarning o'rni. Tarixiy-geografik tadqiqotlarning asosiy metodlari fan sifatida.
Rus olimlari O'rta Osiyoning chorizm tarafidan bosib olishidan ancha ilgari bu o'lkani o'rganish bo'yicha bir qancha ishlar qilgan edilar. Biroq, XIX asrning birinchi yarmidagi o'lkani o'rganish, ya'ni mahalliy tarixchilik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi biqiqliqka mos bo'lib, feodal tuzum manfaatlari uchun xizmat qilar edi. Tarix fanidan feodal sinfining manfaatlari, xonlar va ular sulola-sining taxtga egaligi va «odilligi»ni mafkuraviy jihatdan asoslash uchun foydalanib kelindi. Saroy tarixchilari o'zlarining asosiy e'tiborlarini siyosiy voqeliklarni xonlarning faoliyati va o'z raqiblari ustidan qozongan g'alabalarini ko'klarga ko'tarib maq-tash, saroydagi an'analarni tasvirlashga qaratdilar. CHunki zamon o'zi shunaqa edi. Natijada bu davr tarixchiligining mavzui jahon tarixchiligi mavzusidan bir qadar ajralib qoldi. X—XV asrlardagi mahalliy tarixchilar Muhammad Narshaxiy, Tabariy, Rashididdin, Nizomiddin Jomiy, Abulg'ozixon va boshqalarning asarlari o'zining mazmundorligi, faktik materialga boyligi bilan bu davrda yozilgan tarixiy asarlardan sezilarli darajada ajralib turadi. SHarqshunos A. A. Romaskevich Rashididdinning «Jome ut-tavorix» nomli asari ustida so'z yuritar ekan, haqli ravishda bu asar o'zining mazmuni va hajmi jihatidan muhimligini ko'rsatib, biz bu asardan keyin eron tarixchiligida voqealarni bu xilda bayon qilish uchun bo'lgan intilishni ko'rmaymiz, deb yozgan edi. Bu O'rta Osiyo tarixchiligiga ham xos narsa edi. SHunday qilib, XIX asrning birinchi yarmida tarix fani ham, boshqa fanlar singari, hukmron sinfning manfaati uchun xizmat qildi.

Tarixiy geografiya fanining fan sifatida shakllanishi. Yevropada tarixiy geografik bilimlarni o'rganilishi.

A.Orteliyning tarixiy geografiya shakllanishiga qo'shgan hissasi. F.Klyuverning tarixiy geografik manbalar va asarlarga oid tanqidiy tahlili. J.B.D' Anvil va fransiyalik erudit maktabi boshqa vakillari tomonidan qadimgi va o'rta asrlar tarixiy geografiyasining o'rganilishi. XIX asrning ikkinchi yarmida tarixiy geografiyaning yangi qirralari. Rossiyada tarixiy geografiyaning taraqqiyoti. Tarixiy geografiyaning SHarqda tadqiq etish muammolari. Al-Xorazmiy, Beruniy, Narshaxiy, Mirxond, Xondamir, Bobur va boshqa allomalar asarlarining tarixiy geografiya uchun ahamiyati. Tarixiy geografiyaning yangi davrda o'rganilishi.

Tarixiy geografiya fanining o'rganishda yozma va arxiv manbalarning tutgan o'rni.

Yozma manbalarning ahamiyati va ularning turlari. O'lkamiz tarixi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar: «Avesto», qadimgi fors manbalari, yunon-rim mualliflarining asarlari. Xitoy manbalari. Qadimgi yozuv yodgorliklari so'g'd, baqtriya va xorazm yozuvlari. O'rta asrlar davri arab va mahalliy mualliflarining asarlari, ularda o'lkashunoslikga oid ma'lumotlar. Turkiy o'zbek tilidagi tarixiy manbalar. XIV-XVII asrlarda yaratilgan manbalar va ularning tahlillari. Arxiv manbalarining o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Arxivshunoslik to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Qadimgi va o'rta asrlar davri arxivlari. Arxiv hujjatlarini hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Tarixiy jarayonlarni yoritishda va o'lkashunoslikni o'rganishda arxiv hujjatlarining o'rni.Mustaqillik davrida arxiv hujjatlarining o'rganilishi. O'zbekistonning mustaqilligi davrida arxiv ishlari tizimi. 2010 yil "O'zbekiston Respublikasi arxivlar ishi to'g'risidagi" qonunning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

Tarixiy kartografiya va uning asosiy yo'nalishlari. Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti

Kartografiya haqida ilmiy tushuncha. Kartalarning mazmuniga ko'ra bo'linishi. Tarixiy kartografiya ilmiy fan sifatida. Tarixiy kartografiyaning fan sifatida mazmuni va tarixiy-kartografik usullarning tarix fanida qo'llanilishi. Umumiy va alohida tarixiy kartalar. Tarixiy kartalarning turlari (tarixiy-siyosiy, tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-harbiy, madaniy-tarixiy va hokazo). Tarixiy kartografiyaning paydo bo'lish bosqichi va taraqqiyoti. Tarixiy-o'quv kartalar. Qadimgi geografik kartalarning tarixiy manbashunoslik ahamiyati. Tarixiy kartalarni o'rganishning tarixnavislik jihatlari. Ilk tarixiy atlaslarning xususiyatli jihatlari. O'rta Osiyoning hududlari aks ettirilgan tarixiy kartalar. O'rta osiyolik olimlarning kartografik tadqiqotlari. Evropalik olimlarning kartalari va ularning xususiyatlari. Rossiya imperiyasi va sobiq SSSRda tarixiy kartografiya. Tarixiy kartalarini tuzish va urganish bo'yicha hozirgi davridagi asosiy yunalishlar.

Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rni.

Muzeylarning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Fan tizimida muzeyshunoslik. O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar va ularning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Moddiy va ma'naviy merosni asrash hamda targ'ib etishda muzeylarning o'rni. Muzey turlari, ilmiy tadqiqot, madaniy – ma'rifiy ishlar olib boriladigan muzeylar, faqat bir soha bo'yicha ilmiy – tadqiqot ishlarni olib boriladigan muzeylar. Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rni. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar. Turkistonda tashkil etilgan ilk muzeylar faoliyati. O'zbekistonda 1917-90 yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvarda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni. «Muzeylar to'g'risida»gi Qonun va qarorlarning qabul qilinishi va uning ahamiyati.

O'lka tarixiy topografik joylashuvi mamuriy va hududiy bo'linishi.

Toponimika tushunchasi va uning maqsadi.Geografik joy nomlarini o'rganishda toponimikaning o'rni. Toponimikaning fan sifatida shakllanishi.Toponimikaga oid asosiy ilmiy terminlar mazmuni.Toponimikaning 2 qismga: mikro va makro toponimlarga bo'linishi. Ularning farqli xususiyatlari. O'zbekiston toponimikasiga oid atamalarning yozma manbalarda qayd etilishi. O'zbekistonda toponimik tadqiqotlar tarixi. Toponimik ma'lumotlar to'plash uslublari. Toponimikada antrotoponimlarning o'rni. Respublika viloyatlari joylarining toponimikasi.Toponimikaning xronologik davrlarga bo'lib o'rganilishi. Toponimikaning bo'limlari: gidronimika, oykonimika, oronimika, urbanomika, etnonimlar, patronimlar, xronimlar, zoonimlar, religonimlar, teonimlar va boshqalar.

O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa va antik davr tarixiy geografiyasi

O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tarixiy geografiyasining asosiy jihatlari va xususiyatlari. Temir asri (paleolit, mezolit, neolit) manzilgohlari tarixiy geografiyasi. Joytun, Kaltaminor, Tozabog'yob, Amirobod va boshqa madaniyatlar. Eneolit va bronza (o'troq dehqonchilik manzilgohlari, ko'chmanchi qabilalar qo'rg'onlari, mozor-qo'rg'onlar va hokazo) davridagi manzilgohlar va aholining tarqalishi. Qadimgi Xorazm, Sug'd va Baqtriyaning tarixiy geografiyasi. Ahamoniylar hukmronligi davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi (mil. avv. VI-IV asrlar). Asosiy tarixiy viloyatlar, aholi joylashuvi. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasining xususiyatli jihatlari; shaharlar, davlat birlashmalarining shakllanishi. Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlari va yunon-makedon istilolari davri tarixiy geografiyasi.

O‘rta Osiyoning chor Rossiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi. 1917-1924 yillarda Turkiston

O‘rta Osiyoni chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi geografiyasi. Asosiy istehkomlar, harbiy yurishlar tarixiy geografiyasi. 1865-1867 yillarda Turkiston viloyati. 1867 yilda general-gubernatorlikning tashkil topishi, chegaralari va ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Rossiya-Buxoro (1868 y) va Rossiya-Xiva (1873 y) urushlari; chegaralarning o‘zgarishi. XIX asr 80-90 yillari va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixiy geografiyasi. Qo‘qon qo‘zg‘olonining tugallanishi (Po‘latxon qo‘zg‘oloni va uning uch bosqichi), Qo‘qon xonligining tugatilishi. Xo‘jalik tarixiy geografiyasidagi o‘zgarishlar. 1917 yil fevralidan so‘ng Turkiston o‘lkasi. 1917-1920 yillardagi keskin harbiy-siyosiy kurashlar davrining tarixiy geografiyasiga tavsif. Turkiston muxtoriyati. Turkiston ASSR va uning tarixiy geografiyasi. 1917-1920 yillarda Buxoro va Xiva xonliklarining tarixiy geografiyasi. BXSR va XXSRining tashkil topishi. 1921-1924 yillar O‘rta Osiyo tarixiy geografiyasi. Milliy-hududiy bo‘linish. O‘zbekiston SSR tashkil topishi.

O‘zbekistonning tarixiy geografiyasi (1924-1991 yillar)

O‘zbekistonning 1924-1938 yillardagi chegaralari va ma’muriy-hududiy bo‘linishi (viloyatlar, uezdlar, volostlar, qishloq sovetlari; okruglar, rayon tizimi tashkil etilishi; okrug va viloyatlarga qaytish). O‘zbekistonning XX asr 40-80 yillaridagi ma’muriy-hududiy bo‘linish tizimi. O‘zbekiston poytaxtlari. Hududiy bo‘linishdan so‘ng O‘rta Osiyo chegaralari (Qozog‘iston va Qirg‘iziston ASSR, AO). Tojikiston O‘zbekiston tarkibida. 1929 yilda Tojikiston ASSRning tashkil topishi. Qoraqalpog‘iston avtonom oblasti Qozog‘iston tarkibida; RSFSR tarkibida 1932 yilda Qoraqalpog‘iston ASSRning tashkil etilishi. 1936 yilda Qoraqalpog‘istonning avtonom respublika sifatida O‘zbekiston tarkibiga kirishi. Qoraqalpog‘istonning ma’muriy-hududiy bo‘linishi, poytaxtlari. Sovet davrida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Tojikiston chegarasining o‘zgarishlari. O‘zbekistonning xo‘jaligi, aholi va tabiiy geografiyasi.

Mustaqil O‘zbekistonda tarixiy geografiyaning muammolari va taraqqiyot vazifalari. O‘zbekiston Respublikasi tarixiy geografiyasi

O‘tgan davrda O‘zbekistonda tarixiy geografiya va kartografiya taraqqiyoti: yutuk va muammolar. O‘zbekistonda tarixiy geografiya va tarixiy kartografiya taraqqiyoti – tarix, tarixiy xotira va ma’naviyatimizni boyitishda muhim hodisa ekanligi. O‘zbekiston tarixi bo‘yicha kartalar nashri. Dunyo (jahon) tarixi bo‘yicha ilk kartalar nashri. Kartalarning aniqligi va haqqoniyligiga talablar. O‘rta Osiyoning tarixiy-iqtisodiy geografiyasi bo‘yicha kartalar ishlab chiqish masalalari. O‘zbekistonda tarixiy geografiya fani taraqqiyoti vazifalari. O‘zbekiston Respublikasining tarixiy geografiyasi.

Mashg‘ulotlar shakli: Seminar

S1	Tarixiy geografiya fanining maqsadi vazifalari. Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari.
S2	Tarixiy geografiya fanining fan sifatida shakllanishi. Yevropada tarixiy geografik bilimlarni o'rganilishi.
S3	Tarixiy geografiya fanining o'rganishda yozma va arxiv manbalarning tutgan o'rni.
S4	Tarixiy kartografiya va uning asosiy yo'nalishlari. Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti.
S5	Yurtimiz olimlari tamonidan kartografiya sohasida erishgan yutuqlari.
S6	O'lka tarixiy topografik joylashuvi mamuriy va hududiy bo'linishi.
S7	Muzeylarning o'lka tarixiy geografiyasini o'rganishdagi ahamiyati
S8	Ibtidoiy davr tarixiy geografiyasi.
S9	O'rta Osiyoning eneolit, bronza va ilk temir davri tarixiy geografiyasi.
S10	Antik Davr |Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy geografiyasi.
S11	V-X asrlar tarixiy geografiyasi.
S12	X-XV asrlar tarixiy geografiyasi ning o'rganilishi.
S13	Xonliklar davri tarixiy geografiyasi.

Mashg'ulotlar shakli: Amaliy

A1	Rossiya imperiyasi davri tarixiy geografiyasi.
A2	O'zbekistonning tarixiy geografiyasi (1924-1991 yillar)
A3	Mustaqil O'zbekiston tarixiy geografiyasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Tarixiy geografiya fanining Yevropa va Rossiya hududida rivojlanishi.
2.	Antik davr tarixiy geografiyasi
3.	Temuriylar va xonliklar davri tarixiy geografiyasi.
4.	Yurtimiz tarixiga oid muhim tarixiy manbalar.
5.	Dastlabki xaritalarni yaratilishi.
6.	O'lka tarixini Rossiya olimlari tamonidan o'rganilishi.
7.	O'lka tarixini arxeologik yodgorliklarda aks etish.
8.	O'lka tarixini o'rganishda Muzey ekspanat materiallari muhim tarixiy manba sifatida.
9.	Mustaqillikdan so'ng o'lka tarixini o'rganishga qaratilgan etibor va ularni natijalari.
10.	Arxiv hujjatlari o'lka tarixini o'rganishda muhim manba sifatida.
11.	O'lka tarixiga oid Topografik va toponomik manbalar.
12.	Yevropa olimlari tamonidan o'lka tarixini o'rganilishi.
13.	O'lka tarixiga oid etnografik va antropologik ma'lumotlar.
14.	O'lka mamuriy hududiy tuzulishi va topografik joylashuvi.
15.	O'lka tarixiga oid numizmatik va epigrafik manbalar.

"Tarixiy geografiya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini

yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Tarixiy geografiya va o`lkashunoslik fanlarining maqsad vazifalari O'lka tarixi haqidagi malumotlarni talaba ilmiy tarzda o'rganadi va tahlil qiladi. Bundan tashqari fan haqida dastlabki bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin. Talabalar shu bilan birga, fanning predmeti, maqsadi va vazifasi, talabalarga qanday bilimlar berishi haqida ham tushunchalarga ega bo'lishadi. Qolaversa, ushbu bo'limda Arxeologik va me'moriy yodgorliklarning o'lkashunoslikda tutgan o'rni haqida ham keng ko'lamli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ushbu mavzu haqida keyingi tadqiqotlar olib borgan tadqiqot faoliyati ham keng ma'lumotlar berib ular haqida ham o'quvchilar bilim ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

Asosiy adabiyotlar		
1.	И.Каримов.Тарихий хотирасиз келажак йўқ.Т. 1997.	20 та
2.	И.Каримов. Юксак маънавият енгилмас куч.тошкент.2008.	2 та
3.	Очилдиев Ф.Б. Тарихий ўлкашунослик. Ўқув-қўлланма. Т.: "Университет" 2008. pdf.	1 та
4.	Саидбобоев З.А. Тарихий география. Дарслик. Т., 2010. pdf.	4 та
5.	Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Дарслик. Тошкент. 2008. pdf.	1 та
6.	Сулаймонов Р.Х.Древний Нахшаб, 2000.	3 та
7.	Эшов Б.Ж. Қадимги Ўрта Осиё шахарлари. Т. 1986.	1 та
Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar.		
1.	Алимов И., Эргашев Ф., Бутаев А. Архившунослик. - Т1997.	
2.	Анарбаев А.А. Благоустройство средневекового города Средней Азий (V- нач. XIII вв). Т.,1981. pdf.	
3.	Аннаев Т.Ж., Шайдуллаев Ш.Б. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. Самарқанд, 1997.	
4.	Мовлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. Т., 2008 й	
5.	Караматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. 2009 й.	
6.	Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистонтарихи. Дарслик. I - жилд. (Энг қадимги даврдан XIX асрўрталаригача). Т. 2013.pdf.	
7.	Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (Eng qadimgi davrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha). O'quv qo'llanma. T.: ToshDSHI. 2010. pdf.	
8.	Асанова Г., Набиханов М., Сафаров И. Ўзбекистоннингиқтисодийваижтимоий жўғрофияси. — Т., 1994.	

9.	Байпаков К.Средневековые города юга Казахстана. Алматы, 1980. pdf.
10.	Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973. Djvu

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Mualliflari:	U.A.Umarov – SamDU Arxeologiya kafedrasi assistenti (tel:(97)579-19-83)
E-mail:	umarov u@gamil.
Tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Taqrizchilar:	N.O'.Xolmatov – arxeologiya kafedrasi professori Madaniy meros agentligi Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti K.I.X J.K.Mirzaaxmedov

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - Xolmatov N.O'.

Kafedra mudiri: **O.T.Ergashev**

Kengash raisi: **D.M.Djuraqulova**

O`quv ishlari bo`yicha prorektor: **A.S.Soleyev.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti arxeologiya yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Tarixiy geografiya" fanining fan dasturiga

TAQRIZ

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida muhim o'ziga xos o'rniga ega bo'la boshladi. Bu shubhasiz, davlatchiligimizning yangi pog'onaga chiqganligidan dalolat beradi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "Tarixiy geografiya" fani tanlov fan sifatida oliy o'quv yurtlarining tarix yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

O`quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin ming yillik tarixga ega bo'lgan shaharlarimiz, ularning jahon tamadduni tarixida tutgan o'rni, boy ilmiy merosimizni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir xalqning kimligini bilish uchun uning tarixini, madaniyatini, tom ma'noda bosib o'tgan yo'lini bilishimiz kerak. Shunday ekan, o'zbek xalqi o'zining 3000 yillik tarixi davrida ko'plab o'zgarishlarga duch keldi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tarixning haqiqiy yuzini ochib beradigan, birlamchi manbani bera oladigan fan albatta, arxeologiya fani hisoblanadi.

Tarixiy geografiya fani tarixni o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, ibtidoiy jamoa tarixi, qadimgi dunyo tarixi va o'rta asrlar tarixini haqiqiy yuzni ochib berishda arxeologiya fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini anglay olmasdan, oldimizagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Mazkur fan dasturi "Tarixiy geografiya" tanlov fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan dasturi "Tarixiy geografiya" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisi kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgan.

"Tarixiy geografiya" fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti

Arxeologiya kafedrasi professori: **N.O'.Xolmatov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti arxeologiya yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "dasturi "Tarixiy geografiya" fanining fan dasturiga

TAQRIZ

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin ming yillik tarixga ega bo'lgan shaharlarimiz, ularning jahon tamadduni tarixida tutgan o'rni, boy ilmiy merosimizni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir xalqning kimligini bilish uchun uning tarixini, madaniyatini, tom ma'noda bosib o'tgan yo'lini bilishimiz kerak. Shunday ekan, o'zbek xalqi o'zining 3000 yillik tarixi davrida ko'plab o'zgarishlarga duch keldi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tarixning haqiqiy yuzini ochib beradigan, birlamchi manbani bera oladigan fan albatta, arxeologiya fani hisoblanadi.

Tarixiy geografiya fani tarixni o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, ibtidoiy jamoa tarixi, qadimgi dunyo tarixi va o'rta asrlar tarixini haqiqiy yuzini ochib berishda arxeologiya fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini anglay olmasdan, oldimizagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida muhim o'ziga xos o'rniga ega bo'la boshladi. Bu shubhasiz, davlatchiligimizning yangi pog'onaga chiqganligidan dalolat beradi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "Tarixiy geografiya" fani fan sifatida oliy o'quv yurtlarining tarix yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

O'quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Mazkur fan dasturi "Tarixiy geografiya" fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan dasturida "Tarixiy geografiya" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilagan talablar, bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisining kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan amaliy va nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi.

"Tarixiy geografiya" fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tanlov fan sifatida mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Madaniy meros agentligi Y.G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti direktori:

Tarix fanlari nomzodi **J.K.Mirzaahmedov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI Y.G'ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXEOLOGIYA INSTITUTI KADRLAR BO'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI Y.G'ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXEOLOGIYA INSTITUTI ASLIGA TO'G'RI